

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Samarqand davlat chet tillar instituti
Tarjimonlik fakulteti

Urisheva Shahnozaning
filologiya -koreys tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun
**«KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA NISBAT KATEGORIYASINING
ASPEKTUALIKKA MUNOSABATI»**
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: o'qit.D.U.Baxranova

Ilmiy maslahatchi: prof.

«Ish muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etiladi»
(____ - sonli bayonnoma, 2015 y., «____»____)
“Osiyo mamlakatlari tillari”
kafedrasi mudiri v.v.b. _____ o'qit.



Samarqand-2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA NISBAT KATEGORIYASINING IFODALANISHI.....	5
II BOB KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA ORTTIRMA NISBATNING IFODALANISHI	
2.1. Orttirma nisbatning yasallish usullari.....	6
2.2. Orttirma nisbat yasovchi qo'shimchalarning qo'llanilishi.....	8
III BOB KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA MAJHUL NISBATNING IFODALANISHI	
3.1. Majhul nisbatning yasallish usullari	30
3.2. Majhul nisbat yasovchi qo'shimchalarning qo'llanilishi.....	35
XULOSA.....	40
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	42

KIRISH

“Har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyati tarixida tutgan o’rni, mavqei va shuhrati bevosita o’z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog’liqdir”

I.A.Karimov

“Bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Dastur–bu boshqa modellarni qandaydir takrorlash yoki ulardan nusxa ko’chirish emas, aksincha, birinchi navbatda, rivojlangan demokratik davlatlarda to’plangan tajribani o’zida mujassam etgan va ayni paytda shiddat bilan o’zgarib borayotgan hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dasturdir¹”.

Darhaqiqat, O’zbekiston ta’lim sohasida ulkan yutuqlarni qo’lga kiritmoqda. 2012 yil 16-17 fevral kunlari Toshkentda “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash–mamlakatni barqaror ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti” mavzuida xalqaro konferensiya bo’lib o’tdi. Anjumanda Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Xaruxiko Kuroda, BMT Bosh kotibining o’rinbosari Noylin Xeyzer, Islom taraqqiyot banki prezidenti Ahmad Muhammad Ali, Vebstersk universiteti prorektori Nansi Xellerud (AQSH) va boshqalar tarixan qisqa vaqt ichida mamlakatimiz ta’lim sohasida olib borilgan islohotlar tufayli ulkan yutuqlarga erishganini e’tirof etdilar.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi–ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to’la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish²”, deya ta’kidladi Yurtboshimiz I.A.Karimov anjumanning o’tkazilishidan

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yil 16-17 fevral kunlari Toshkent shahrida “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti” mavzusida bo’lib o’tgan xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqidan. Zarafshon gazetasi. 2012-yil, 21-fevral, 21-soni.

² O’zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Oliy ta’lim me’yoriy hujjatlar to’plami. –T.: Sharq, 1997.

ko'zlangan maqsadga to'xtalar ekan. Biz bugun mamlakatimizda yangi davlat, yangi jamiyat barpo etmoqdamiz. Lo'nda qilib aytganda, biz o'z oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlar, ya'ni, dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini oshirish, o'z erkinligimizni, o'z mustaqilligimizni himoya qilishga qodir bo'lish, jahon miqyosida o'zimizga munosib o'rin egallash–bunday ulug'vor vazifalar bugungi kunda, hech shubhasiz, barchamizga yaxshi ayondir. Albatta, bunday oliy maqsadlarga erishish barchamizdan og'ir va mashaqqatli mehnatni, katta sinovlardan o'tish, boshlagan yo'limizni davom ettirishni, fidoyilikni, bir yoqadan bosh chiqarib, birdamlik bilan harakat qilishni, kurashishni talab etadi.

Hech shubhasiz aytish mumkin–bugungi kunda ona yurtimizda dunyodagi boshqa mamlakatlarning havasini tortayotgan zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimi, o'quv maskanlari barpo etilgan. Bolalarimiz to'qqiz yillik umumta'lim maktablarini bitirib, qishloq va shaharlarimizda yangitdan qurilgan 1500 dan ziyod eng zamonaviy litsey va kollejlarda 3 yil davomida tahsil oladi. Bu o'quv yurtlari eng ilg'or ilm-fan va taraqqiyot sirlarini o'zlashtirishga, 2-3 ta kasb hunarni, xorijiy tillarni, Internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashga imkon yaratadi va bugungi zamon talabiga javob beradigan etuk mutaxassislarni tayyorlaydi ¹

Mavzuning dolzarbligi. Inson o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi jarayonida o'z ajdodlarining milliy qadriyatlarini ijodiy o'zlashtiruvchi, zamonaviylashtiruvchi va boyituvchidir. O'zining ana shunday insoniy burchlarining har bir shaxs tomonidan mukammal bajarilishi ijtimoiy taraqqiyotning boy va rang-barang madaniy oqimlarini hosil qiladi. Shu nuqtai-nazardan har bir inson o'zida tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko'rsatgichlarni mujassamlashtiruvchi tarbiyaning mahsulidir. Modomiki, o'rganilayotgan xorijiy tilning og'zaki va yozma nutqini tahliliy tadqiq qilar ekanmiz, o'sha tilda

¹ Prezident Islom Karimovning "Barkamol avlod-2014" sport o'yinlari qatnashchilariga tabrigi. Xalq so'zi gazetasi. 2014-yil, 30-may. 105-soni.

so'zlashuvchi xalqning tilidagi nisbat kategoriyasi va uning nutqdagi ahamiyati, koreys tilini chet tili sifatida o'rganuvchi talaba va o'quvchilar uchun fe'l nisbatlarini o'rganish jarayonida yuzaga keluvchi qiyinchilik va muammoli vaziyatlarni tadqiq etish kabi masalalar biz tanlagan mavzuning nechog'lik dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi koreys va o'zbek tillarida nisbat kategoriyasining ifodalanishi ushbu ikki tildagi mavjud nisbat kategoriyasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar, shuningdek nisbat kategoriyasining nutq jarayonida qo'llanilish usullari, nisbat kategoriyasining yasaliş hamda umuman nisbat kategoriyalari haqida ko'nikma malakalarini shakllantirish va rivojlantirishning uslubiy tizimini ilgari surishdir. Bu vazifani amalga oshirish uchun quyidagi maqsadlarni qo'ydik:

- koreys, o'zbek tilida nashr qilingan darsliklar va o'quv-uslubiy adabiyotlarda nisbat kategoriyasining talqini, ularni qo'llash usullarini aniqlash va tasnif qilish;

- fe'l nisbatlarining koreys va o'zbek tillarida badiiy adabiyot manbalarida turli vaziyatlarda qo'llanishi hamda tarjima jarayonida yuz beruvchi o'zgarishlarni aniqlash;

- qo'llanishiga ko'ra nisbat kategoriyalarini koreys va o'zbek tillarida o'xshash va noo'xshash jihatlarini qiyosiy tahlil etish.

Mavzuning tekshirish ob'ektlari va manbalari. Turli xalqlarning bir-birlarini tanishda, bilishda, bilvosita va bevosita millatlararo muloqotlarda insonning o'ziga xos-milliy jihatlariga e'tibor berilgan. Qadim zamonlarda ham tarixchilar, sayyohlar, qomusiy bilimga ega mutafakkirlar (Stabon, Abu Rayxon Beruniy, Mikluko Maklay, R.G. de Klaviko) qoldirgan asarlar, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy ta'limotlarda ham boshqa xalqlar hayotini qiyosiy o'rganish yo'nalishi mavjud edi. XIX asrga kelib chet el ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiqot qiluvchi kulturantronogiya va sotsiologiya maxsus fanlarga aylanib, "boshqa dunyo kishisi" muammosini o'rgana boshladi. Bu esa aslida, boshqacha tarbiya-milliy tarbiyaning tizim, uslublari,

maqsadlaridagi xususiyliklarni ilmiy nuqtai-nazardan o'rganish davri boshlanganligini anglatar edi.

Tadqiqotni bajarishda koreys tilini nazariy va amaliy o'qitishda foydalanilayotgan darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va mashqlar to'plamlari, shuningdek koreys va o'zbek tilida nashr etilgan badiiy adabiyotlar asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, ishda badiiy qahramonlar nutqini talqin etishga doir «Иностранные языки в школе», «Иностранные языки в высшей школе», “Korea post”, “Korean literature” kabi jurnallarda e'lon qilinayotgan maqolalardan keng foydalandik.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiqot usullari. “Boshqa dunyo kishisi” tushunchasi va uni o'rganish taraqqiyparvar yangilik bo'lib, bunday tadqiqotlar “Boshqa mamlakat, millat kishisi qanaqa?”, “U o'zini o'rab olgan dunyoni, borliqni qanday idrok qiladi?”, “Yaxshilik va yomonlik haqida tushunchalari qanday?”, “U o'z hatti-harakatlarida qanday mezonlarga asoslanib yo'l tutadi?” kabi savollarga javob berishi kerak edi. Odamlarning dunyo haqidagi bilimlari ortib, yangi erlar ochilib, savdo-sotiq munosabatlari kengaya borgan sari ushbu muammoga qiziqish ham orta bordi.

Ma'lumki, birinchi signallar sistemasi inson hayotida ham katta ahamiyatga ega bo'lib, insonning ikkinchi signallar sistemasi uchun tabiiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi signallar sistemasi esa – bu biz eshitayotgan, so'zlayotgan, o'qiyotgan so'zlarimizdir. Ya'ni, so'z bizga birinchi signallar sistemasining siymolari, xususiyatlari haqida mujassamlashgan holda xabar beradi.

O'quvchilar so'z orqali birinchi signallar haqida ma'lumot olgach, ularda hurmat, achinish, rahm-shafqat kabi kechinmalar hosil bo'ladi. Demak, birinchi signallar sistemasi orqali hosil qilish mumkin bo'lgan hatti-harakatlar, his-tuyg'ularni ikkinchi signallar sistemasi – so'zlar orqali hosil qilish mumkin.

Tadqiqotimizning metodologik asosini dialektik falsafaning umumiylik-xususiylik munosabatlariga doir qonun-qoidolari, tabiat, jamiyat va tafakkur elementlarining o'zaro sistem munosabatda ekanligi haqidagi ta'limot tashkil etadi. Ishda sistem va amaliy tilshunoslikda va chet tillar o'qitish metodikasida keng

qo'llanib kelinayotgan tavsiflash, qiyoslash, tasniflash kabi metodlardan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda o'zbek va koreys tillaridagi nisbat kategoriyasining koreys tili og'zaki nutqi, shuningdek, badiiy adabiyot namunalarida keng qo'llanishi asoslari ishlab chiqildi. Bunday talqinning ilgari surilishi muayyan xorijiy tilni kommunikativlik asosida o'qitish bo'yicha yangi qo'llanmalar yartilishiga, shuningdek, asosiy chet tili fanining "So'zlashuv", "Uyda o'qish" aspektida turli xil muloqot vaziyatlarini tez va qulay o'zlashtirishda ham ta'lim beruvchiga ham ta'lim oluvchiga amaliy yordam berishi ko'zda tutiladi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda koreys tilida nisbat kategoriyasi tadqiqining lingvo-metodik aspektlari ilk marotaba o'zbek tilida metodik tizim sifatida ishlab chiqildi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati yana qo'yidagilar bilan belgilanadi:

-ishdan kuzatiladigan ilmiy natijalar metodik tavsiyalar sifatida xorijiy tillarni o'rgatuvchi o'rta maktablarda, akademik litseylarda, kasb-hunar kollejlarda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida chet tilidan ona tiliga, ona tilidan chet tiliga tarjima mashg'ulotlarida, shuningdek tahliliy o'qish, uyda o'qish, so'zlashuv amaliyoti darslarida kommunikativ mashqlar sifatida foydalanish mumkin.

Ishning hajmi va tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishimiz 50 sahifadan iborat bo'lib, «Kirish», ikki bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA NISBAT KATEGORIYASINING IFODALANISHI

Fe'l orqali ifodalangan harakatni amalga oshiradigan shaxs yoki narsa-harakatning **bajaruvchisi (subyekti)** deb ataladi, harakat o'tgan narsa yoki shaxs **obyekt** deb ataladi. Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada qatnashishini ifodalovchi fe'l shakllari **fe'l nisbati** deyiladi (ayrim darsliklarda **daraja** deyiladi). O'zbek tilida fe'l nisbatlari besh xil:

1. **Aniq nisbatdagi fe'llar** harakatning ma'lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi, ya'ni bu fe'llar ifodalagan harakat-holatning bajaruvchisi aniq bo'ladi. Aniq nisbatdagi fe'llarda maxsus nisbat qo'shimchalari bo'lmaydi: o'qidi, kelyapti, bormoqchi. bu nisbatda subyektga munosabat nol shakl orqali ifodalanadi va umumiy grammatik ma'nosi harakatning ega bilan ifodalanganshaxs yoki predmet tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligini bildirisdan iborat. Bu nisbatdagi fe'l o'timli(oldi) yoki o'timsiz(uxladi) bo'lishi mumkin.¹

Nol shakl umumiy grammatik ma'nosida o'zi mansub kategoriyaning mohiyatini boshqalarga nisbatan to'laroq aks ettiradi. Ma'lumki, fe'lning barcha shakllarini ikkiga- kategoriya ichidagi shakllarning o'zaro ziddiyatida aniq bir belgiga ega belgili shakllarga jumladan aniq nisbatdan boshqa nisbatdagi shakllarga va bu ziddiyatda aniq belgiga ega bo'lmaganshakllarga masalan aniq nisbat shakliga ajratish mumkin. Birinchi guruh shakllar o'zlari mansub kategoriyaning umumiy grammatik ma'nosidan aniq bir ko'rinishni "xususiylashtirib" oladi. Ikkinchi guruh shakllarda xususiylashma noaniq bo'ladi. Ikkinchi guruh shakllari bizningcha aniq nisbat o'zi mansub kategoriyaning umumiy namoyondasi bo'ladi. shuning uchun ular matn va sharoit talabi bilan boshqa shakllar ma'nosini ifodalashi, aniq nisbat ham belgisiz shakl sifatida boshqa nisbat shakllari o'rnida bimalol qo'llanaverishi mumkin. yuqorida bunga

¹ "Zamonaviy o'zbek tili" Toshkent-2008.193 B

aniq nisbatdagi fe'l masalan hayajonlanmoqdan o'zlik nisbat ma'nosini uqilib turishi misolida amin bo'lgan edik.

2. O'zlik nisbatdagi fe'llar ish-harakatning boshqa buyumga o'tmay, bajaruvchining o'zida qolganini, o'zi ustida bajarilganini anglatadi. O'zlik nisbati umumiy grammatik ma'nosi harakatning subyektini va obyektni birlashtirish, o'timli fe'lnio'timsiz fe'lga aylantirishdan iborat. Bunday fe'llar, asosan, o'timli fe'llarning unli bilan tugagan negiziga -n, -l, undosh bilan tugagan negiziga -in, -il qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi (bir-ikkita fe'lda -(i)sh qo'shimchasi bilan yasaliş bor: kerishdi, joylashdi, tarandi, sevindi, sudraldi). Jonlanmoq, xo'rsinmoq, odatlanmoq, harakatlanmoq, quvonmoq, seskanmoq, faxrlanmoq, zavqlanmoq, o'tlanmoq, afsuslanmoq fe'llari tarkibida -n ko'rsatkichi mavjudligiga qaramasdan, bu fe'llar aniqlik nisbatida hisoblanadi, chunki ular tarkibidagi -n qo'shimchasi ajratilmaydi. Yayra, qichqir, uxla, bor kabi fe'llardan o'zlik nisbat yasalmaydi, ayrim hollarda grammatik shakl o'zlik nisbatniki bo'lsada bu shakl harakat obyekti ekanini bildirmaydi: *Bir mahal G'ulomjon tuynukdan erinib chiqayotgan tutunga qarab so'zlandi.*(M.Ism). *So'ng uzun do'nlik ortiga o'tib .*(P. Qod.). *Yigit ko'zini yashirishga joy topolmay qiynaldi.*(S. Ahm.). *Davlatbekovning tug'ilgan qishlog'iBodomzor bu yerdan o'n bir chaqirim pastda.*(P. Qod)

O'zlik nisbati shakli har qanday o'timli fe'ldan ham yasalavermaydi. Masalan o'qi, hayda, kes, ek, min, tik, sug'or kabi fe'ldan o'zlik nisbati hosil qilinmaydi. Shuningdek orttirma nisbatdagi o'timli fe'ldan ham o'zlik nisbat hosil qilinmaydi.¹

Semantikasida ma'noviy siljish ro'y berayotgan o'zlik nisbati shakliga ega fe'llar bu nisbatdan xoli qaralishi lozim: *Yuzlari semizlikdan tirsillagan Arabboy kerilgan bir holda so'radi.*(P.Tur).BU QISHLOQDA Avazning eng **ochilib** gaplashadigan tengdoshi shu Zamonali edi.(P.Qod.).

¹ "O'zbek tilida so'z yasaliş tizimi" Toshkent 2007.194 b

Bunday hol ayrim mualliflarning ba'zan nisbatni so'z yasalishi sifatida qarashiga, bazan izohli lug'atlarda bosh so'z (leksema) sifatida berishlariga sabab bo'ladi. Shaklning to'laqonli o'zlik nisbati ekanligi yoki emasligini aniqlashda boshqariladigan so'z yordam beradi. Aslida o'zlik nisbatdagi fe'l o'timsiz bo'lganligi sababli tushum kelishigidagi fe'l bilan bog'lanmaydi. Ayrim hollarda bu shakldagi fe'l bilan boshqacha hol kuzatiladi. Masalan: choponini yopindi birikuvida o'zlik nisbat shaklidagi fe'l tushum kelishigidagi fe'lni boshqarmoqda. Demak, bunda nisbat shakli bo'lsada, mazkur nisbatga tegishli ma'no mavjud emas. Ma'no va shakl yaxlit emas ekan, bu birikuvda o'zlik nisbatni qidirish ma'qul emas.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zlik nisbatida kharakat subyekti "subyekt-obyekt" qiyofasiga kirib, avvalgi obyekt yo'qoladi.

Halim kiyimini kiydi – halim kiyindi.

Birinchi gapda Halim subyekt, kiyim obyekt, ikkinchi gapda obyekt yo'q, Halim esa "subyekt-obyekt"dir

3. Majhul nisbatdagi fe'llar ish-harakatning aniq bajaruvchisini ko'rsatmaydi. Bu fe'llar ham -n, -in, -l, -il qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: to'kildi, to'plandi, ochildi, olindi. O'zlik va majhul nisbatdagi fe'llar bir xil qo'shimcha yordamida hosil bo'lganda, ularning qaysi nisbatdaligi gap mazmunidan yoki fe'ldan oldin o'zi so'zini keltirib ko'rish bilan aniqlanadi:¹

Mukofotlar berildi.

Alisher o'qishga berildi (1-fe'l majhul, 2-fe'l o'zlik nisbatdadir). O'zlik nisbatda harakatning bajaruvchisi aniq bo'ladi va u gapda ega vazifasida keladi (Sanjar imtohongga tayyorlandi), majhul nisbatda esa bajaruvchi (subyekt) noaniq bo'ladi va u gap tarkibida to'ldiruvchi vazifasini bajarib keladi (Devoriy gazeta

¹ "O'zbek tilida so'z yaslash tizimi" Toshkent 2007.196 b

Sanjar tomonidan tayyorlandi). Majhul nisbat shakllari, ko‘pincha o‘timli fe‘llardan yoki orttirma nisbat shaklidagi o‘timsiz fe‘llardan yasaladi: kitobni o‘qidi–kitob o‘qildi; mashq yozdirdi–mashq yozdirildi.¹

4. **Birgalik nisbatdagi fe‘llar** ish-harakatning bir necha shaxs yoki narsa-buyum tomonidan birgalikda bajarilganligini bildiradi va unli bilan tugagan negizga **-sh**, undosh bilan tugagan negizga **-ish** *Karim va Ahmad maqola yozishdi. Bolalar paxta terishdi.* To‘qnashdi, o‘rtoqlashdi, ommalashdi, hazillashdi, go‘zallashdi, boqishdi, qarashdi (yordamlashdi), aytishdi, tortishdi (bahslashdi) fe‘llari hozirgi o‘zbek tilida ajralmas holatga kelib qolganligi uchun aniqlik nisbatidadir. Qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi. Bunday fe‘llar ish-harakatining bir necha shaxs yoki narsa tomonidan bajarilganligini yoki birgalik-ko‘plik ma‘nolarini ifodalaydi. Birgalik nisbati asos fe‘l boshqaruviga oddiy vositali to‘ldiruvchini ko‘makchili vositali to‘ldiruvchiga aylantirish darajasida o‘zgarish berishi mumkin.

Birgalik nisbat shaklida “birgalik yordamlashish” va “birgalik-ko‘plik” oraliq Grammatik ma‘nosini farqlanadi. “birgalik-ko‘plik” ma‘nosi uchun fe‘llarning o‘timli-o‘timsizligi ahamiyatsiz: *Kattalar o‘sha yerda. Arz qil yordam berishadi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishadi.*

5. **Orttirma nisbatdagi fe‘llar** ish-harakatning bajaruvchi ta‘sirida boshqa biror shaxs yoki narsa-buyum vositasida bajarilganligini bildiradi va -t (asosan, unli bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli fe‘llarga qo‘shiladi), -tir (jarangsiz undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli (kel fe‘lidan tashqari), ko‘p bo‘g‘inli fe‘llarning ko‘pchiligiga qo‘shiladi), -dir (asosan, jarangli undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli fe‘llarga qo‘shiladi), -ir, -ar, -iz, -giz, -kiz, -giz, -gaz, -qiz, -sat qo‘shimchalari yordamida hosil qilinadi: o‘qit, keltir, yozdir, bitir, uchir, pishir, qochir, ochiq, toshir, chiqar, qaytar, tomiz, emiz, oqiz, yurgiz, ko‘rgaz, turg‘iz, ketkiz, tutqaz, o‘tkaz, ko‘rsat.

¹ “O‘zbek tilida so‘z yasash tizimi” Toshkent 2007.195 b

Bu qo'shimchalar o'timsiz fe'llarni o'timli fe'llarga aylantiradi: keldi – keltirdi, yurdi – yurgizdi, uchdi – uchirdi, pishdi – pishirdi, chiqdi – chiqardi, o'tdi – o'tkazdi. Ayrim fe'llar orttirma nisbat shaklida yangi ma'no ifodalaydigan bo'lib qoladi va shuning uchun ularni aniq nisbatda qo'llab bo'lmaydi: erkalamoq – erkalatmoq (ikkala shaklda ham orttirma nisbat ma'nosini ifodalayapti). Bir fe'lga bittadan ortiq orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilishi mumkin: Yegiz–yegizdir, yozdir–yozdirtir. Bunday fe'llarda orttirma nisbat ma'nosi kuchaytiriladi. Fe'lning orttirma nisbati o'zlik va birgalik nisbatdagi fe'llardan ham hosil qilinishi mumkin: yuvintir, yig'ishtir. Ortirma nisbatdagi fe'llardan birgalik va majhul nisbatdagi fe'llar hosil qilinishi mumkin: isitildi, yozdirishdi.

Koreys tilida fe'l nisbatlari to'rt xil bo'lib, ular: 능동사 (o'zlik nisbati), 주동사 (bosh nisbat), 피동사 (majhul nisbat), 사동사 (orttirma nisbat)lardir.

Yuqoridagi nisbatlarda o'zaro o'xshashlik mavjud. Masalan, 능동사 va 주동사 bir-biriga juda o'xshab ketadi. Ularni deyarli ajratib bo'lmaydi. 능동사 o'zbek tilidagi o'zlik nisbatiga o'xshab ketadi, ya'ni ish-harakat sub'yekt tomonidan bajarilib, yana sub'yektning o'ziga qaytadi.¹

이 글씨는 아무리 지우려고 해도 지워지지 않습니다.

(Bu yozuvni qanchalik o'chirmoqchi bo'lsam ham o'chmadi)

Bu gapda 지우다 (o'chirmoq) fe'li 능동사 (o'zlik nisbat) fe'li hisoblanadi. 주동사 o'zbek tilidagi bosh nisbatga o'xshaydi, ya'ni fe'l anglatgan harakatni bajaruvchi shaxs sub'yektga teng bo'ladi.

내가 아기를 보는 동안 아기가 웬일인지 자주 울었습니다.

(Men chaqaloqqa qarab turganimda bolakay negadir tez-tez yig'ladi.)

¹ “한국어 문법” Toshkent. 2007.149 b

Bu ikki nisbat (주동사 와 능동사)da hech qanday qo'shimcha qo'shilmaydi. Ammo orttirma va majhul nisbat (사동사 와 피동사)larning ifodalanishi boshqa tillarga nisbatan biroz murakkabroqdir. Koreys tilida majhul va orttirma nisbatni vujudga keltiradigan qo'shimchalar bo'lib, ular fe'lga yakka (단형), ya'ni '이, 히, 리, 기....' va '게하다' '아/어지다' kabilar esa, birikma (장형) tarzida qo'shiladi. Ammo hamma fe'llarga ham '이, 히, 리, 기...' kabi yakka tarzidagi qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydi. Koreys tilida barcha fe'llarga yakka tarzda qo'shimchalarni qo'shish orqali majhul va orttirma nisbatlarni ifodalab bo'lmagani sababli, ba'zi bir fe'llarga birikma tarzidagi qo'shimchalar qo'shiladi. Bundan tashqari, qo'shimchalar birin-ketin qo'shish ham mumkin. Ammo, yakka tarzda qo'shiladigan qo'shimchalar birdan ikki marta qo'shila olmaydi. Yakka tarzidagi qo'shiladigan qo'shimchalar fe'l oxirida tugagan tovushlarga qarab qo'shiladi. Masalan, majhul nisbat qo'shimchasi 'ㅇ' qo'shila oladigan o'timli fe'llar asosan unli bilan tugagan, yoki padchimi 'ㄱ, ㅎ' bo'lgan fe'llardir.¹

Masalan, 농다-농이다 (qo'yimoq-qo'yilmoq), 섞다-섞이다 (aralashtirmoq-aralashtirilmoq).

Ammo orttirma va majhul nisbatni ifodalash uchun fe'lga qo'shiladigan yakka tarzidagi qo'shimchalar bir-biri bilan o'xshash bo'lganligi sababli, majhul va orttirma nisbat shakliy jihatdan bir-biriga o'xshab bir xil bo'lishi mumkin, bunda gap ma'nosiga qarab ajratiladi. Bular bilan birgalikda orttirma nisbat ma'nosini bera oladigan ba'zi bir fe'llar ham bor. Masalan, '하다' bilan tugagan ba'zi bir gaplarni olaylik, bunda '하다' o'rniga '시키다' qo'yish orqali orttirma nisbatni ifodalash mumkin. Biroq hamma '하다' bilan tugagan fe'llarni ham bunday '시키다' fe'li bilan almashtirib bo'lmaydi.

¹ “한국어 문법” Toshkent. 2007.151 b.

II BOB. KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA ORTTIRMA NISBATNING IFODALANISHI

O'zbek tilida orttirma nisbat shakli quyidagilar:

[-dir (-tir)]: chizdir, yondir, urintir;

[-gaz (-giz, -g'az, -g'iz, -kaz, -kiz, -qaz, -qiz)]: ko'rgaz, kirgiz, turg'iz, yutqiz, o'tqaz, ketgiz, yurg'az;

[-(i) t]: o'qit, ishlat, tugat, boshlat, yurit, kirit;

[-iz]: oqiz, tomiz.

[-ir]: bitir, uchir, pishir, qochir, ochir, shoshir, oshir, botir, qotir;

[-ar]: chiqar, qaytar;

[-sat]: ko'rsat;¹

Orttirma nisbatning umumiy grammatik ma'nosi harakat jarayonini orttirish, jarayonga ortiqcha bajaruvchini kiritish va o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantirishdan iborat. Orttirma nisbatda ish-harakatning subyekti ortib, ular bevosita va bilvosita subyektga ajraladi:

Halim o'qidi.

Halim ukasini o'qitdi.

Birinchi gapda subyekt bitta. Ikkinchi gapda esa ikkita bo'lib, [Halim] bilvosita, [ukasi] bevosita bajaruvchilardir. Bevosita subyekt unchalik ahamiyatli bo'lmaydi, shuning uchun u ko'p holda ifodalanmay qolaveradi.

Orttirma nisbat shakli fe'lga birdan ortiq qo'shilishi mumkin. Bunda avvalgi bevosita subyekt bilvosita subyektga aylanib ketaveradi:

Halim to'ladi.

Halim ukasiga to'latdi.

Halim ukasiga to'lattirdi.

¹ "O'zbek tilida so'z yasalihi" A. Xojiyev. 2007. 195b

Jumla g'alizligi kelib chiqmasligi uchun keyingi gapdagi bevosita subyekt tushirib qoldirilgan.

Orttirma nisbat shaklli fe'l semantikasida ma'noviy siljish ro'y berib, unga hos morfema ajralmaydigan holga kelib qolishi ham mumkin:

Tuzatmoq, surishtirmoq, solishtirmoq, yaratmoq, uyg'on, yupan, erkalatmoq, dalil keltirmoq, isbot keltirmoq tipidagi fel ham shular jumlasidandir.

Orttirma nisbat shakli o'timli fe'lni o'timsizga aylantiradi.

사동사 o'zbek tilidagi orttirma nisbat bilan o'xshash bo'lib, so'zma-so'z ma'nosi {시키다} buyurmoq ma'nosiga to'g'ri keladi. Bu nisbat qo'shimchalari majhul nisbat qo'shimchalari bilan bir xildir. Ikki holatda ham fe'l qaysi nisbat qo'shimchalarini olishi aniq qoida bilan belgilanmagan. Shuning uchun nisbat qo'shimchasini olgan fe'llarni yodlab olish zarur.

2.1 Orttirma nisbatning yasaliş usullari

1. (1) 가: 아이가 우유를 먹었다. (Bola sutni ichdi.)

(2) 나: 어머니가 아이에게 우유를 먹였다. (Ona bolasiga sutni ichirdi.)

Bu ikki misolda “우유를 먹는” (sutni ichgan) harakatni bajargan shaxs faqat boladir. Ammo bu gaplarda harakat va eganing munosabatini ko'rsak bu ikki gapda farq bor. (1) 가- da ega “아이” (bola) bevosita “우유를 먹는 ” (sutni ichgan) harakatini bajargan shaxs ammo, (1) 나-da esa ega “엄마” (ona) bevosita “우유를 먹는” (sutni ichgan) harakatini bajargan shaxs emas, balki “엄마” (ona) ya'ni ega bolaga sutni ichdirgan shaxsdir. Agar (가) dagidek ega ish-harakatni bevosita o'zi bajarsa bosh nisbat bo'lib, (나) dagidek ega ish-harakatni boshqa shaxsga qoldirsa unda orttirma nisbat ishlatiladi. Bu misollar orqali biz bosh nisbatga “히” qo'shimchasi qo'shilib orttirma nisbat yasalişini ko'rdik. Orttirma nisbat fe'llariga faqat bu kabi qo'shimcha qo'shilib yasalmaydi. Masalan:

(2) 가: 아이가 밥을 먹는다. (Bola ovqatni yedi.)

나: 어머니께서 아이에게 밥을 먹이신다. (Ona bolasiga ovqatni yedirdi.)

다: 어머니께서 아이에게 밥을 먹게 하신다. (Ona bolasiga ovqatni yedirdi.)

(3) 가: 아이가 옷을 입는다. (Bola kiyimni kiydi.)

나: 어머니께서 아이에게 옷을 입히셨다. (Ona bolasiga kiyimni kiydirdi.)

다: 어머니께서 아이에게 옷을 입게 하셨다. (Ona bolasiga kiyimni kiydirdi.)

Bu misollarda (2 가), (3 가) dagi ‘먹다’(yemoq) ‘입다’ (kiymoq) fe’llari bosh nisbat bo’lib, (2 나), (3 나) dagi ‘먹이다’(yedirmoq) ‘입히다’ (kiydirmoq) fellari orttirma nisbatdir.

Ammo (2 다), (3 다) dagidek qo’shimcha “-게” va yordamchi fe’l “하다” bilan ishlatiladigan “-게 하다” dan foydalanib ham orttirma nisbat yasaladi.¹

2.2 Orttirma nisbat yasovchi qo’shimchalar

Oldingi misollarda ko’rganimizdek koreys tilida orttirma nisbat bosh nisbatga orttirma nisbat ma’nosini beradigan qo’shimchalar -이, -히, -리, -기, -우, -구, - kabilar qo’shilib yasaladi. Bu kabi orttirma nisbat qo’shimchalari majhul nisbat qo’shimchalaridan farqli ravishda o’timli va o’timsiz fe’llarga, sifatga qo’shila oladi, lekin hamma fe’l, sifatlarga qo’shilmay, orttirma nisbat qo’shimchalari qo’shilmaydiganlari ham ko’pdir.

Orttirma nisbat qo’shimchalari qo’shiladigan fe’l va sifatlarning jadvalini ko’rsak:

¹ “한국어 문법” Toshkent. 2007.153 b.

(3) 자동사가 사동사가 되는 경우

(Bosh nisbaning orttirma nisbat bo'lgan holati)¹

{이}	
죽다 > 죽이다	o'lmoq-o'ldirmoq
속다 > 속이다	aldanmoq-aldamoq
녹다 > 녹이다	erimoq-eritmoq
끓다 > 끓이다	qaynamoq-qaynatmoq
{히}	
눹다 > 눹히다	yotmoq-yotqizmoq
얹다 > 얹히다	o'tirmoq-o'tqizmoq
익다 > 익히다	Pishmoq-pishirmoq
{리}	
날다 > 날리	Uchmoq-uchirmoq
돌다 > 돌리다	aylanmoq-aylantirmoq
살다 > 살리다	yashamoq-yashatmoq
얼다 > 얼리다	Muzlamoq-muzlatmoq
울다 > 울리다	yig'lamoq-yig'latmoq
{기}	
남다 > 남기다	qolmoq-qoldirmoq

¹채완(2003), 한국어의 의성어와

웃다 > 웃기다	Kulmoq–kuldirmoq
숨다 > 숨기다	yashirinmoq–yashirmoq
{우}	
깨다 > 깨우다	uyg'onmoq–uyg'otmoq
빼다 > 비우다	bo'shamoq–bo'shatmoq

(4) 타동사가 사동사가 되는 경우

(O'timli fe'l orttirma nisbat bo'lgan holat)

{이}	
먹다 > 먹이다	yemoq–yedirmoq
보다 > 보이다	ko'rmoq–ko'rsatmoq

{히}	
업다 > 업히다	Opichlamoq–opichlatmoq
입다 > 입히다	Kiymoq–kiydirmoq
읽다 > 읽히다	o'qimoq–o'qitmoq
잡다 > 잡히다	ushlamoq–ushlatmoq
{리}	
알다 > 알리다	bilmoq–bildirmoq
물다 > 물리다	Tishlamoq–tishlatmoq
{기}	

감다 > 감기다	Yuvmoq–yuvdirmoq (sochni)
뜯다 > 뜯기다	uzib tashlamoq–uzib tashlatmoq
벗다 > 벗기다	Yechmoq–yechdirmoq
안다 > 안기다	quchoqlamoq–quchoqlatmoq
{우}	
지다 > 지우다	ustiga ortmoq–ustiga ottirmoq

(5) 형용사가 사동사가 되는 경우

(Sifat orttirma nisbat bo'lgan holat)

{이}	
높다 > 높이다	Yuksak-yuksaltirmoq
{히}	
넓다 > 넓히다	keng-kengaytirmoq
좁다 > 좁히다	Tor-toraytirmoq
밝다 > 밝히다	yorug',oydin-oydinlashdirmoq
{구}	
달다 > 달구다	qizimoq-qizdirmoq
{추}	
낮다 > 낮추다	Past-pasaytirmoq
늦다 > 늦추다	kech qolmoq–kechiktirmoq

Oldingi namunadagidek koreys tilida hamma bosh nisbat fe'llari orttirma nisbat fe'llarini yuzaga keltirishi emas, balki orttirma nisbat yasaydigan qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydigan so'zlar ham bor.

(4) 가: 학생이 집에 간다.

(O'quvchi uyiga ketdi.)

나: 선생님께서 학생을 집에 가인신다. (X)

(O'qituvchi o'quvchini uyiga yubortirdi.) (X)

(5) 가: 동생이 여자 친구를 마났다.

(Ukam yoqtirgan qizini uchratdi.)

나: 내가 동생에게 여자 친구를 만나이었다. (X)

(Ukamga yoqtirgan qizini uchratgizdim.) (X)

Bu misolning har birida '가다' (bormoq), '만나다' (uchratmoq) kesimdir. Lekin bu gaplarda (4), (5) dagi kabi orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilib orttirma nisbat kesimi bo'la olmaydi. Bu bilan birgalikda orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shib bo'lmaydigan fe'llarda '주다, 받다, 드리다, 바치다' (bermoq, olmoq, taqdim qilmoq, havola qilmoq) kabi 수여 (taqdim qilish) fe'llari va '만나다, 뵙다, 싸우다' (uchratmoq, o'xshamoq, janjallashmoq) kabi 와, 과 kerak bo'ladigan fe'llar, '배우다, 느끼다, 바라다' (o'rganmoq, his qilmoq, tilamoq) kabi 경험 (tajriba) fe'llari, '이기다, 던지다, 지키다, 때리다' (g'olib bo'lmoq, uloqtirmoq, qo'riqlamoq, urmoq) kabi fe'l o'zagiga unli 'ㅣ' bilan tugaydigan fe'l, hamda '노래하다, 도착하다, 출발하다' (kuylamoq, yetib kelmoq, jo'nab ketmoq) kabi '하다' (qilmoq) qo'shiladigan fe'llar ham bor. Bu fe'llarga orttirma nisbat qo'shimchasini qo'shib bo'lmaydi. Bosh nisbat '주어+형용사+서술어' (ega+sifat+kesim) tuzilishda

bo'lgan holatda unga to'g'ri keladigan orttirma nisbat misoli quyidagi kabi o'xshash.¹

가 :답이 높다. (Devor baland.)

나: 사람들이 답을 높였다. (Odamlar devorni baland qildi.)

다: 사람들이 답 {을/이} 높게 했다 (Odamlar devorni baland qildi.)

Bosh nisbat fe'lga orttirma nisbat qo'shimchasi '-이, -히, -리, -기, -우, -구, -추' va '-게 하다' kabilar qo'shilgan kesim ishlatilib bosh nisbatdan orttirma nisbat yaslashini oldingi misollarda ko'rdik. (1 나) da (1 가) ning egasi, to'ldiruvchi bo'lib yangi ega '사람들이'(odamlar) paydo bo'lib, sifat '높다' (baland)ga orttirma nisbatning ma'nosini beradigan qo'shimcha "-이" qo'shilib yuzaga kelgan gapdir. Tashqaridan qaraganda bosh nisbatdagi orttirma nisbatdagi jarayondek, lekin sifat harakati yoki holatini yuzaga keltirmagani sababli (1 가) va (1 나) ning munosabatini bosh-orttirma nisbat munosabati deb bo'lmaydi. Shuning uchun (1 나) ga o'xshash gaplar orttirma nisbatdek ko'rinmay, kesimi o'timli fe'l bo'lgan sodda gapdek ko'rinadi. Ammo (1 가) dagi (1 나) ni yuzaga keltirgan jarayon bilan farq qilmay, (1 나) ning ma'nosi ish-harakat yoki predmetning 'qanday qilinganligini', ya'ni orttirma nisbatning ma'nosini yuzaga keltirib, bu yerda ikkala misolda ham orttirma nisbat ifodalangan.

Bosh nisbatdagi fe'lga orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilgan holatda bosh nisbat fe'lga orttirma nisbat qo'shimchasi bitta qo'shilishi, ba'zi fe'llarga orttirma nisbatning ikkita qo'shimchasi birin-ketin qo'shilishi ham mavjud. Bunday so'zlar asosan 'O|' unlisi bilan emas boshqa unli bilan tugaydi. Masalan:

(2) 가:

¹채완(2003), 한국어의 의성어.303b

서다	서+ 우	세우다	turmoq-turgizmoq
자다	자+ 우	재우다	uxlamoq-uxlatmoq
타다	타+ 우	태우다	minmoq-mindirmoq
차다	차+ 우	채우다	to'lmoq-to'ldirmoq

나:

크다	크+ 우	키우다	katta-kattartirmoq
----	--------	-----	--------------------

Bu paytda (2 나) dagi kabi o'zagi unli ' — ' bilan tugagan holatda orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilganda unli ' — ' tushib qoladi. Yana bu orttirma nisbat qo'shimchalaridan tashqari kam uchraydigan ' -애 - ', ' - 시 - ', ' - 으키 - ',

' - 이키 - ' bilan o'xshash maxsus orttirma nisbat qo'shimchasi fe'l yoki sifatga qo'shiladigan vaziyatlar ham bor.

(3) 가:

없다	없+ -애	없애다	yo'q-yo'qotmoq
적다	적+ -시	적시다	kam-kamaytirmoq
일다	일+ -으키	일으키다	rivojlanmoq-rivojlantirmoq
돌다	돌+ -이키	돌이키다	aylanmoq-aylantirmoq

Bu holatda qo'shimchalar so'zga har biri alohida-alohida qo'shiladi. Ammo, ikkita bir xil qo'shimcha birdan qo'shilmaydi.

접미사에 의한 사동문은 어떻게 만들까?

(Qo'shimcha orqali orttirma nisbat qanday yasaladi?)

Qo'shimcha qo'shish bilan orttirma nisbat yasash usuli orqali orttirma nisbatni yasash usulida kesimi sifat yoki o'timsiz fe'l bo'lgan vaziyat va kesimi

o'timli fe'l bo'lgan vaziyatlar bir-biridan farqlidir. Avval kesimi sifat yoki o'timsiz fe'l bo'lgan bosh nisbatdagi gapni orttirma nisbatga aylantirish vaziyatida gapning tuzilishi qanday o'zgarishini tahlil qilib ko'raylik. “주어+ 서술어” (ega+kesim) shaklida tuzilgan sifat yoki o'timsiz fe'l gapi orttirma nisbatga aylantirishda bosh nisbatdagi gapning egasi orttirma nisbatda bosh nisbat mavjud bo'lmagan yangi ega paydo bo'ladi, hamda bosh nisbatdagi gapning kesimiga orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilib orttirma nisbatga aylanadi. Bu kabi sifat yoki o'timsiz fe'lning orttirma nisbat bo'lishida kesimdan foydalanilsa o'timli fe'l kabi uning oldidagi to'ldiruvchiga tegishli bo'ladi.

(6) 서술어가 자동사인 경우

(Kesim bosh nisbat bo'lgan holat)

주동문 (bosh nisbat gapi)	아기가 (bola)	운다 (yig'ladi)
Gap bo'laklari:	주어 (ega)	자동사 서술어 (bosh nisbat kesimi)

나:

사동문 (orttirma nisbat gapi)	동생이 (ukam)	아기를 (bolani)	울린다 (yig'latdi)
Gap bo'laklari:	새 주어 (ega)	목적어(to'ldiruvchi)	사동사 서술어 (orttirma nisbat kesimi)

(7) 서술어가 형용사인 경우

(Kesim sifat bo'lgan holat)

가:

주동문 (Bosh nisbat gapi)	길이 (yo'l)	넓다 (keng)
Gap bo'laklari:	주어 (ega)	형용사 서술어 (sifat kesim)

나:

사동문 (Orttirma nisbat gapi)	아저씨들이(amakilar)	길을 (yo'lni)	넓혔다 (kengaytirdi)
Gap bo'laklari:	새 주어 (ega)	목적어 (to'ldiruvchi)	사동사 서술어 (Orttirma nisbat kesimi)

Yuqorida ko'rganimizdek (6) va (7) gaplarda bosh nisbat gapining egasi '아가' (bola) va '길이'(yo'l) har biri orttirma nisbatning to'ldiruvchisiga aylanib, bosh nisbatda mavjud bo'lmagan yangi ega '동생이' (ukam) va '아저씨들이' (amakilar) paydo bo'ladi va kesim '올다' (yig'lamoq) va '넓다'(keng) o'zagiga orttirma nisbat qo'shimchasi '-리-' va '-히-' qo'shib orttirma nisbatga ya'ni '올리다' Yig'latmoq va '넓히다' (kengaytirmoq)ga aylanadi.

Quyida kesimi o'timli fe'l bo'lgan bosh nisbat gapini orttirma nisbatga aylantirishda gapning tuzilishi qanday o'zgarishini tahlil qilsak. '주어+ 목적어+ 서술어' (ega+to'ldiruvchi+kesim) shaklida tuzilgan bosh nisbat orttirma nisbatga aylanishida bosh nisbatning egasi orttirma nisbatda to'ldiruvchi yoki qo'shimcha '-에게' qo'shiladi va holga aylanib, bosh nisbatning to'ldiruvchisi to'gridan-to'g'ri orttirma nisbatning to'ldiruvchisi bo'ladi va bosh nisbatda mavjud bo'lmagan yangi ega orttirma nisbatda paydo bo'lib bosh nisbatning kesimi orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shib orttirma nisbatga aylanadi.

(8) 서술어가 타동사인 경우

(Kesim o'timli fe'l bo'lgan holat)

가:

사동문 (bosh nisbat gapi)	아이가 (bola)	과일을 (mevani)	먹는다 (yedi)
Gap bo'laklari:	주어 (ega)	목적어 (to'ldiruvchi)	타동사 (o'timli fe'l)

나:

사동문 (orttirma nisbat gapi)	엄마가 (ona)	아이에게/을 (bolaga/ni)	먹으신다 (yedirdi)
Gap bo'laklari:	새 주어 (ega)	부사어/목적어 (hol/to'ldiruvchi)	사동사 서술어 (orttirma nisbat kesimi)

Bu misollarda ko'rganimizdek orttirma nisbatda bosh nisbatda mavjud bo'lmagan yangi ega '엄마'(ona) paydo bo'lib, kesim '먹다' (yemoq) orttirma nisbat qo'shimchasi '-이-' qo'shilib, orttirma nisbatga ya'ni '먹이다' (yedirmoq) ga aylanadi va bosh nisbat egasi '아이가' (bola) orttirma nisbatda hol '아이에게' (bolaga) yoki to'ldiruvchi '아이를'(bolani) ga aylanadi. Bu vaziyatda '아이를' (bolani) ga qaraganda '아이에게' (bolaga) holi ko'proq ishlatiladi. Bunga sabab bir gap ichida '과일을' (mevani) degan yana boshqa to'ldiruvchi mavjud bo'lib, biroz noo'xshashligi sabablidir. Boshqa tomondan bosh nisbatning to'ldiruvchisi orttirma nisbatda ham to'gridan-to'g'ri, ya'ni hech qanday o'zgarishsiz ishlatiladi.

Orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilib yasalgan orttirma nisbatga to'g'ri keladigan bosh nisbat bo'lmagan vaziyat ham bor.¹

1. 가: 선생님이 종을 올렸다.

(O'qituvchi qo'ng'iroqni chaldi)

¹ “한국어 맞춤법” 서울.2003.178b

나: 종이 울었다. (X)

1. 가: 그 증인은 끝까지 진실을 숨겼다.

(U guvoh oxirigacha haqiqatni yashirdi.)

나: 끝까지 진실을 숨겼다 (X)

1. 가: 박세리는 이름을 날렸다.

(Pak Seri nomini tanitdi.)

나: 이름을 날았다 (X)

1. 가: 내 친구는 고양이를 먹인다.

(Do'stim mushikni ovqatlantiryapti.)

나: 고양이를 먹는다. (X)

Bu (1), (2), (3) misollardan ko'rinib turibdiki orttirma nisbatning jufti bo'lgan bosh nisbatni shakllantirish juda qiyin va (4) misolning (4 나) to'g'ri gap, ammo '먹이다' (yedirmoq) fe'li '기르다' (boqmoq) fe'li ma'nosida '먹다' (yemoq) fe'lining ma'nosi bilan umuman aloqasi yo'q. Bu gaplar (1 가)-(4 가)da qandaydir harakatni bajarish yoki qandaydir holatga solish kabi orttirma nisbat ma'nosining o'ziga xos xususiyatlari ma'lum bo'layotgandek ko'rinadi.

“-게 하다” orqali orttirma nisbat yasash usuli

“-게 하다” orqali orttirma nisbat yasash usuli bosh nisbatning kesimiga qo'shimcha “-게-” ni qo'shib undan keyin yordamchi fe'l '하다' dan foydalangan holda orttirma nisbat yasaladigan usuldir. Bu paytda yordamchi fe'l '하다' o'rniga '만들다' dan foydalangan holda bir xil ma'no yuzaga kelish holati ham bor.

“-게 하다” orqali orttirma nisbat yasash usulida qo'shimcha qo'shish orqali yasaladigan usulga qaraganda foydalanish mumkin bo'lgan fe'llar chegarasi ancha darajada kengdir. Ya'ni orttirma nisbat qo'shimchalarini qo'shib orttirma nisbat

yasab bo'lmaydigan fe'llar, albatta, mumkin bo'lgan fe'l o'zagida birlashib orttirma nisbatni yuzaga keltiradi.

(9) 가: 학생들이 집에 갔다. (O'quvchilar uyga ketdi.)

나: 선생님께서 학생들 {이/을} 집에 가이였다 (X)

다: 선생님께서 학생들 {이/을/에게} 집에 가게 하셨다 (O)

(O'qituvchi o'quvchilarni uyiga ketgizdi.)

(10) 가: 동생이 여자 친구를 만났다

Ukam yoqtirgan qizini uchratdi

나: 내가 동생에게 여자 친구를 만나이였다 (X)

다: 내가 동생 {에게/을/이} 여자 친구를 만나게 하였다 (O)

Ukamga yoqtirgan qizini uchratgizdim. **(0)**

Bu misollarda ko'rganimizdek (9 가), (10 가)ning kesimi '가다'(ketmoq), '만나다'(uchratmoq)ga orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilib, orttirma nisbat yasalmay, (9 나), (10 나)dek orttirma nisbat fe'li orqali orttirma nisbat gapi yuzaga kelmay, (9 다), (10 다) dek "-게 하다" ni qo'shib orttirma nisbat gapini yasash mumkin.

"-게 하다" orqali orttirma nisbat qanday yasaladi?

"-게 하다" ni qo'shib orttirma nisbat yasash usuli kesimi sifat yoki o'timsiz fe'l bo'lgan vaziyatlar bir-biridan farq farq qiladi. Avval kesimi sifat yoki o'timsiz fe'l bo'lgan bosh nisbat gapini orttirma nisbatga aylantirishda gapning tuzilishi qanday o'zgarishini tahlil qilib ko'rsak.

Kesimi sifat yoki o'timsiz fe'l bo'lgan vaziyatda bosh nisbatga "-게 하다" qo'shilib bosh nisbatdagi gapning egasi orttirma nisbatning to'ldiruvchisi yoki egasiga almashgandan keyin orttirma nisbatdagi gapda yangi egani qo'ysa bo'ladi.

(11) 서술어가 자동사인 경우¹

(Kesim bosh nisbat bo'lgan holat)

가:

주동문 (bosh nisbat gapi)	아기가 (bola)	잔다 (uxladi)
Gap bo'laklari:	주어(ega)	자동사 서술어 (bosh nisbat kesim)

사동문 (orttirma nisbat gapi)	어머니가 (ona)	아기를/가 (bolani)	자게 한다 (uxlatdi)
Gap bo'laklari:	새 주어 (ega)	목적어/주어 (to'ldiruvchi/ega)	사동 서술어 (orttirma nisbat kesim)

(12) 서술어가 형용사인 경우

(Kesim sifat bo'lgan holat)

가:

주동문 (bosh nisbat gapi)	길이 (yo'l)	넓다 (keng)
Gap bo'laklari:	주어 (ega)	형용사 서술어 (sifat kesim)

¹임헌갑 (지음)(2001).201b

나:

사동문 (orttirma nisbat gapi)	이 분들이 (bu kishilar)	길을/이 (yo'lni)	넓게 했다 (kengaytirdi)
Gap bo'lakalri:	새 주어 (ega)	목적/주어 (to'ldiruvchi/ega)	사동사 서술어 (orttirma nisbat kesim)

Bu misollarda ko'rganimizdek kesimi sifat yoki o'timsiz fe'l bo'lgan vaziyatda orttirma nisbatda, bosh nisbatda mavjud bo'lmagan yangi ega '어머니'(ona) va '이 분들이'(bu kishilar) paydo bo'lib, kesim '넓다'(keng) va '자다' (uxlamoq) ga '게 하다' ni qo'shib '자게 하다' (uxlatmoq) holatiga o'zgaradi va bosh nisbatning egasi '어머니' (ona) va '길이'(yo'l) orttirma nisbatda '아기를' (bolani) va '길을' (yo'lni) kabi ega yuzaga keladi, ammo qo'shimchalar orqali orttirma nisbat yasash usulida bosh nisbatning egasi faqat to'ldiruvchiga aylanadigan vaziyat bilan farqlidir. Lekin odatda bitta gap ichida bir xil tarkib o'sha vaqtda yuzaga kelishidan qochgan holda bu misollarda qo'shimcha '이/가'dan foydalanishga qaraganda '을/를' dan foydalanilsa yanada yaxshiroqdir.

Bu yerda bir xil qo'shimcha qo'shilgan sifatning vaziyati quyidagi kabi '– 게 하다' va '-아/어지게 하다' kabi ikki xil shaklda bo'lishi mumkin.

(13) 가: 순이의 머리가 예쁘다.

Sunining sochi chiroyli.

나: 아주머니는 순이의 머리를/가 예쁘게/예뻐지게 하신다.

Xola Sunining sochini chiroyli qigizdirdi.

Ammo (13 나)da to'ldiruvchi '순이의 머리를' (Sunining sochi) dan foydalanishda '예쁘게 하다' (chiroyli qigizdirdi) va '예뻐지게 하다' (chiroyli qigizdirdi) ning qaysi biri yuzaga kelsa ham farqi yo'q, biroq ega '순이의 머리가' (Sunining sochi)ga ishlatilganda faqat '예뻐지게 하다' (chiroyli qigizdirdi) yuzaga kelishi kerak.

Quyida kesimi o'timli fe'l bo'lgan bosh nisbat orttirma nisbatga aylantirilayotganda gap tuzilishi qanday o'zgarishini tahlil qilib ko'raylik.

(14) 서술어가 타동사인 경우

(Kesim o'timli fe'l bo'lgan holat)

주동문 (bosh nisbat gapi)	아이가 (bola)	과일을 (mevani)	먹는다 (yedi)
Gap bo'lakalari:	주어 (ega)	목적어 (to'ldiruvchi)	타동사 서술어 (o'timli fe'lli kesim)

나:

사동문 (orttirma nisbat gapi)	엄마는 (ona)	아이에게/를/가 (bolaga)	과일을 (mevani)	먹게한다 (yedirdi)
Gap bo'lakalari	새 주어 (ega)	부사어/목적어/주어 (hol/to'ldiruvchi/ega)	먹적어 (to'ldiruvchi)	사동 서술어 (orttirma nisbatli kesim)

Bu misollardagidek kesimi o'timli fe'l bo'lgan vaziyatda bosh nisbatning to'ldiruvchisi orttirma nisbatda to'g'ridan-to'g'ri to'ldiruvchi bo'lishidan tashqari sifat, o'timsiz fe'l vaziyati bilan asosli farqi yo'q. Bir gap ichida bir xil tarkib

kelishidan qochish bilan bir xilligi sababli bosh nisbatning egasi orttirma nisbatning egasi yoki to'ldiruvchisiga aylanishiga qaraganda '에게' qo'shilib holga aylanishi yanada tabiiyroqdir.

Kesimi '명사-이다' bo'lganda qo'shimcha qo'shish orqali va yana albatta '게 하다' orqali ham orttirma nisbat yasalishi mumkin. Bu paytda '이다' fe'li '되다' ga almashsa tabiiy ravishda orttirma nisbat gapi bo'ladi. '있다' bo'lganda '게 하다' orqali orttirma nisbat yasash mumkin.

(15) 가: 나는 그를 가수이게 했다 (X)

나: 나는 그를 가수가 되게 했다 (0)

(Men uni qo'shiqchi qildirdim.)

다: 영화는 순이를 학교에 있게 했다 (0)

(Kino Sunini maktabga boradigan qildi.)

“게 하다” orttirma nisbatda vaqtni ifoda qiluvchi qo'shimcha '-았 - / - 었 - / - 겠 - ', '- 더 - ' kabilar faqat '하다' gagina qo'shila oladi.

(1) 가: 영이가 동생에게 밥을 먹었게 하다 (X)

나: 영이가 동생에게 밥을 먹게 했다 (0)

(Yongi ukasiga ovqat yedirdi.)

(2) 가: 내가 철수를 집에 가겠게 하다 (X)

나: 내가 철수를 집에 가게 하겠다 (0)

(Men Cholsuni uyga yubordim.)

(3) 가: 철수는 영이가 집에 가더게 하라 (X)

나: 철수는 영이가 집에 가게 하더라 (0)

Cholsu Yongini uyga yubordi.

Qo'shimchalar orqali yasaladigan orttirma nisbat va '-게 하다' orqali yasaladigan orttirma nisbatda hurmatni ifodalaydigan, oxiridan oldingi qo'shimcha '-(으)시-' ning birlashishida farq ko'rinadi.

(4 가)가: 선생님께서는 할머니를 자리에 앉히셨다

(O'qituvchi buvimni o'rniga o'tqizdi)

나: 아버님께서 어머니를 시장에 가게 하셨다

(Dadam oyimni bozorga yubordi.)

다: 누나가 어머니를 시장에 가시게 하셨다

(Opam onamni bozorga yubordi.)

라: 아버님께서 어머니를 시장에 가시게 하셨다

(Dadam oyimni bozorga yubordi.)

(4 가)da ko'rganimizdek qo'shimchalar qo'shib yasalgan orttirma nisbatda faqat eganigina hurmatlab aytishimiz mumkin. Bundan tashqari '-게 하다' orqali yasalgan orttirma nisbatda (4 나) - (4 라) dagidek ega ham, to'ldiruvchi ham hurmat shaklida bo'lishi mumkin. Ya'ni (4 나) da orttirma nisbat egasi '아버님', to'ldiruvchi '어머님', (4 라)da ega '아버님' va to'ldiruvchi '어머님' hammasida hurmat shakli ifodalangan.

사동을 표현하는 다른 방법을 없을까?

(Orttirma nisbatni ifodalovchi boshqa usuli yo'qmi?)

Orttirma nisbat qo'shimchalari qo'shilib orttirma nisbat yasaladigan usul va '–게 하다' orqali orttirma nisbat yasashda so'z orqali orttitma nisbat ifodalanadi. So'z orqali orttirma nisbat ifodalay oladigan '시키다' so'zi ham bor. Bu orttirma nisbatni ifodalagan '하다' bilan ishlatilgan kesimda '하다' ni '시키다' bilan almashtirsa bo'ladi.

1. 가: 영수가 날마다 일을 한다

(Yongsu har kuni ish qiladi)

나: 주인이 영수에게 날마다 일을 시킨다

(Xo'jain har kuni Yongsuga ish qildiradi)

Ammo '시키다' orqali orttirma nisbatni ifodalash asosan asosiy fe'l '하다' yoki '–하다' birlasha oladigan fe'lga to'g'ri kelsagina ishlatiladi. Masalan, '먹다 (yemoq), 읽다 (o'qimoq)' kabi fe'llarga mos kelib ishlatib bo'lmaydigan '똑똑하다 (aqlli), 얌전하다 (bosiq), 정직하다 (sofdil)' kabi sifatlariga '–하다'ni qo'shib bo'ladi, biroq '시키다' orqali orttirma nisbat yasab bo'lmaydi. Bunda '시키다' orttirma nisbat ifodalanishini chegaralaydi. Kesimi '시키다' bo'lgan orttirma nisbatning quyidagi kabi o'ziga xos hususiyatlari bor.

Birinchidan, '시키다' oldidagi so'z bilan uning o'rtasida '을/를' yoki hol kabilarni qo'yish mumkin.

1. 가: 김 선생님이 학생들을 발표시켰다

(Kim o'qituvchi o'quvchilarga nutq so'zlatdi.)

나: 김 선생님이 학생들{에게/을} 발표를 시켰다

(Kim o'qituvchi o'quvchilarga nutq so'zlatdi.)

다: 김 선생님이 학생들{에게/을} 발표를 안 시켰다

(Kim o'qituvchi o'quvchilarga nutq so'zlatdi.)

Ikkinchidan, ‘시키다’ fe’li umuman oldindagi so’zdan ayri holda ‘하다’ o’rniga orttirma nisbatni ifodalaydi.

1. 가: 부머님이 딸에게 감동을 했다

(Ota-ona qizidan ta’sirlandi.)

나: 딸이 부머님을 감동을 시켰다

(Qiz ota-onasini ta’sirlantirdi.)

Uchinchidan, ‘시키다’ fe’li ‘-게 하다’ bilan bir xil ma’no berganligi sababli almashtirib foydalanilsa bo’ladi. Ya’ni, ‘하다’ bilan bog’langan kesim orttirma nisbat bilan birikib ‘-하게 하다’ bo’lganda uni ‘시키다’ bilan almashtirsa bir xil orttirma nisbat ma’nosini ifodalaydi.

1. 가: 선생님이 학생들에게 글짓기를 연습하게 한다.

(O’qituvchi o’quvchilarga yozish mashqini qildirdi.)

나: 선생님이 학생들에게 글짓기를 연습시킨다.

(O’qituvchi o’quvchilarga yozish mashqini qildirdi.)

III BOB KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA MAJHUL

NISBATNING IFODALANISHI

3.1 KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA MAJHUL NISBATNING IFODALANISHI

Majhul nisbat [-i(l)] va [-i(n)] shakllari yordamida hosil qilinadi:

Yuvildi, tozalandi, aytildi, gapirildi, olindi;

kabi. Bu nisbatli fe'l "subyektivsizlashadi", aniqrog'I obyekt ustuvorlashib, ega vazifasiga o'tadi, mantiqiy obyekt Grammatik ega maqomini oladi:

*Bu yerda chetan bilan **o'ralgan** mol qo'rasi bor edi.*

*Boboxo'ja domla ishdan **bo'shatildi**.*

Majhul nisbat asosan o'timli: o'ralgan, yig'ilgan, sochilgan, terilgan; qisman o'timsiz: bo'shatilgan, tushilgan, borilgan: feldan hosil qilinadi. O'timsiz fe'ldan yasalganda egasiz gap(shaxssiz fe'l) hosil bo'ladi:

Bu ko'cha bilan ikki-uch yuz odim yuriligach, qishloq guzariga yetiladi.(H. Sharipov)

Rasmi,yomon xotindan qochiladi, zamona shum bo'lsa, yaxshi xotindan ham qochar ekan kishi.(A. Qahhor)

Ba'zan majhul nisbatda qo'llanilishi lozim bo'lgan fe'l aniq nisbatda bo'lsa ham, majhul nisbat ma'nosi ifodalanadi:

*Anchagina **yurgach**, o'ng tomonda paxsa uy ko'zga tashlandi.(N. Safarov)*

Bunda shakl va ma'no muvofiqligi yo'q, shuning uchun nisbatni aniqlashda " Qaysi nisbat shaklli yoki qaysi nisbat ma'nosi bor ?" tarzidagi muqobil savoldan biri qo'yilishi kerak. Bir-biriga bog'langan kontakt holatdagi ikki feldan ikkinchisigina majhul nisbatda bo'ladi :

*Bu dori spirtida ivitilib,**qiyom qilib ichiladi**.*

*Eshakka teskari **mindirib sazoyi qilindi**.*

O'zlik va majhul nisbat omonimlik munosabatda bo'lishi mumkin:

osildi, tashlandi, to'kildi

fe'llarining o'zli yoki majhul nisbatda ekanligini qurshovda ma'lum bo'ladi.

(1) 가: 엄마가 아기를 안았다.

(Ona bolasini quchoqladi.)

나: 아기가 엄마에게 안겼다.

(Bola onasi tomonidan quchoqlandi.)

Bu misollarning ikkalasida ham ona farzandini quchoqlayotganiga o'xshash bir xil ma'no ifodalagan. Ammo (1 가) ning kesimi '안다' bo'lib, (1 나) ning kesimi '안기다' dir. '안기다' fe'li '안다' fe'lining o'zagiga ' -기-' qo'shilib yasalgan fe'ldir. Bunda (1 가) dagidek ega o'z kuchi bilan harakat bajarishi, o'zlik nisbati deb atalib, (1 나) dagidek eganing boshqalarning harakati yoki faoliyati orqali ta'sir olishi majhul nisbat deyiladi. O'zlik nisbat va majhul nisbat Gramatik tuzilishiga ko'ra ifodalangan gapning har biri o'zlik nisbatdagi gap yoki majhul nisbatdagi gap deyilib, umuman o'zlik nisbatdan majhul nisbat yasash jarayoniga majhul nisbat yasash jarayoni deyiladi.¹

(1 가) ning egasi '엄마가' o'z irodasi bilan bolani quchoqlashini yuzaga keltirib, (1 나) ning egasi '아기가' boshqa odam, ya'ni holga aylangan '엄마' orqali quchoqlanishi yuzaga kelgan. Asosiy ma'no bir xil bo'lsada o'zlik nisbat va majhul nisbat bir-biridan farqlidir.

3.2 Majhul nisbat yasashning quyidagi usullari bor

Biz yuqoridagi misollarda o'zlik nisbatga majhul nisbat qo'shimchasi qo'shilib majhul nisbat yasalishini ko'rdik. Ammo majhul nisbat har doim majhul nisbat qo'shimchasi qo'shilib yasalmaydi. Quyidagi misollarga e'tibor bersak:

2). 가: 그는 신문을 찢었다

(U gazetani yirtidi.)

나: 신문이 그의 의해 찢겼다.

(Gazeta u tomonidan yirtildi.)

다: 신문이 그의 의해 찢어졌다.

¹ <http://www.bookmoon.co.kr>.

(Gazeta u tomonidan yirtildi.)

(2 가) gapi ‘찢다’ (yirtmoq), ya’ni kesimi o’timli fe’l bo’lgan gapdir. (2 나) da ‘찢다’(yirtmoq) fe’liga majhul nisbat qo’shimchasi ‘-기-’ qo’shib ‘찢기다’ (yirtilmoq) kesimi majhul nisbat bo’lib, (2 다) da ‘찢다’(yirtmoq) fe’lining o’zagiga ‘-어지다’ qo’shib ‘찢어지다’(yirtilmoq) kesimi majhul nisbat gapini tashkil qilgan. Bu kabi majhul nisbat qo’shimchasini qo’shib majhul nisbatni yasash usuli majhul nisbat qo’shimchalarini qo’shish orqali majhul nisbat yasash usuli deb atalib ‘-아/ - 어지다’ni qo’shib majhul nisbat yasash usuli ‘-아/ - 어지다’ orqali majhul nisbat yasash usuli deb ataladi.

3.3 Majhul nisbat qo’shimchalarining qo’llanilishi

Majhul nisbat qo’shimchalarini qo’shish orqali majhul nisbat yasash usuli deb o’timli fe’lga majhul nisbat qo’shimchasi ‘-이- , -히- , -리- , -기-’ larni qo’shib majhul nisbat yasash usuliga aytiladi. Majhul nisbat, umuman o’zlik nisbatning kesimi o’timli fe’l bo’lgan holatda mumkindir. Quyida majhul nisbat qo’shimchalari qo’shiladigan majhul nisbat bo’lgan fe’llarni ko’rsak.

가:

‘-이-’	
놓다 > 놓이다	qo’ymoq–qoyilmoq
보다 > 보이다	ko’rmoq–ko’rilmoq
뒹다 > 뒹이다	bog’lamoq–bog’lanmoq

섞다 > 섞이다	aralashtirmoq–aralashtirilmoq
쌓다 > 쌓이다	yig’moq–yig’ilmoq
쓰다 > 쓰이다	yoqmoq–yoqilmoq
파다 > 파이다	kovlamoq–kovlanmoq
깎다 > 깎이다	kesmoq–kesilmoq
바꾸다 > 바뀌다	almashtirmoq–almashtirilmoq

나:

‘- 히 -’	
닫다 > 닫히다	yopmoq–yopilmoq
먹다 > 먹히다	yemoq–yeyilmoq
묻다 > 묻히다	ko’mmoq–ko’mimoq
박다 > 박히다	qoqmoq–qoqilmoq
밟다 > 밟히다	bosmoq–bosilmoq
엮다 > 엮히다	ustiga qo’ymoq–ustiga qo’yilmoq
잡다 > 잡히다	Ushlamoq–ushlanmoq
접다 > 접히다	buklamoq–buklanmoq
읽다 > 읽히다	o’qimoq–o’qilmoq

다:

‘- 리 -’

누르다 > 눌리다	Bosmoq-bosilmoq
들다 > 들리다	ko'tarmoq-ko'tarilmoq
물다 > 물리다	ko'mmoq-ko'milmoq
밀다 > 밀리다	itarmoq-itarilmoq
폴다 > 풀리다	yechmoq-yechilmoq (muammo)
팔다 > 팔리다	sotmoq-sotilmoq
열다 > 열리다	ochmoq-ochilmoq

라:

‘-기-’	
감다 > 감기다	yuvmoq-yuvilmoq (sochni)
끊다 > 끊기다	uzmoq-uzilmoq (aloqa)
안다 > 안기다	Quchoqlamoq-quchoqlanmoq
찢다 > 찢기다	yirtmoq-yirtilmoq
쫓다 > 쫓기다	quvlamoq-quvilmoq

Bu majhul nisbat qo'shimchalarini olgan o'timli fe'llarning quyidagicha o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Birinchidan, majhul nisbat qo'shimchasi ‘ㅇ|’ qo'shila oladigan o'timli fe'llar asosan unli bilan tugagan yoki padchimi ‘ㄱ, ㅎ’ bo'lgan fe'llardir.

Ikkinchidan, ‘히’ qo'shila oladigan o'timli fe'llarning padchimi ‘ㄱ, ㄷ, ㅂ, ㅈ, ㅊ’ bo'lgan fe'llardir.

Uchinchidan, ‘리’ qo’shila oladigan o’timli fe’llar padchimi ‘ㄷ’ bo’lgan fe’l yoki ‘걷다 (yurmoq), 듣다 (eshitmoq)’ kabi noto’g’ri fe’llar, ‘누르다 (bosmoq), 자르다 (kesmoq)’ kabi o’zagi ‘르’ bo’lgan fe’llardir.

Ammo, bu qo’shimchalar orttirma nisbat qo’shimchalari bilan o’xshash bo’lganligi uchun tashqi ko’rinishidan bir xil bo’lgan vaziyatlar ham bor. Bu paytda orttirma nisbat ishlatilganligini yoki majhul nisbat ishlatilganligini to’ldiruvchi borligiga qarab talqin qilish mumkin.

가: 보다 – 보이다

ㄱ: 저 멀리 바다가 보인다. (피동)

(Uzoqdan dengiz ko’rindi.) (Majhul nisbat)

ㄴ: 영수가 순이에게 연필을 보여 주었다. (사동)

(Yongsu Suniga qalamni ko’rsatdi.) (Orttirma nisbat)

나: 읽다 – 읽히다

ㄱ: 책이 영희에게 읽힌다. (피동)

(Kitob Yongxui tomonidan o’qildi.) (Majhul nisbat)

ㄴ: 선생님이 영희에게 책을 읽히신다. (사동)

(O’qituvchi Yongxuiga kitob o’qitdi.) (Orttirma nisbat)

다: 들다 – 들리다

ㄱ: 그 사람 양손에 가방과 보따리가 들려 있었다. (피동)

(U odam ikki qo’lida sumka va tuguncha ko’tarib olgandi).

ㄴ: 영감은 하인에게 짐을 들렸다. (사동)

(Chol xizmatchiga yukni ko’tartirdi.) (Orttirma nisbat)

ㄱ: 나는 어제 밤새 모기에게 뜯겼다. (피동)

(Men kechasi pashshalarga talandim.)

ㄴ: 목동이 소에게 풀을 뜯긴다. (사동)

(Cho'pon mollarga o'tni yedirtdi.) (Orttirma nisbat)

‘-아/어지다’ *orqali majhul nisbat yasash usuli*¹

‘-아/어지다’ orqali majhul nisbat yasash usuli deb o'zlik nisbat gapi kesimiga ‘-아/어지다’ ni qo'shib majhul nisbatni yasash usuliga aytiladi. ‘-아/어지다’ orqali majhul nisbat yasash usuli qo'shimcha orqali majhul nisbat yasash usuli bilan bir xil, kesimi o'timli fe'l bo'lgan vaziyatda bo'lishi mumkin. Hamda qo'shimcha orqali majhul nisbat yasash usuli orqali majhul nisbat yasab bo'lmaydigan o'timli fe'llarda majhul nisbat yasab beradigan vazifani bajaradi.

1. 가: 기술자가 구두를 만들었다.

(Usta tufli tayyorladi.)

나: 구두가 기술자에 의해 만들어졌다.

(Tufli usta tomonidan tayyorlandi.)

(1 가) dagi ‘만들다’(tayyorlamoq) fe'liga majhul nisbat qo'shimchasi qo'shib bo'lmaydi. Bu kabi o'timli fe'llarga (1 나) dagidek ‘-아/어지다’ bilan majhul nisbat yasaladi. Ammo quyidagi (2) dagidek ‘-아/어지다’ bilan majhul nisbat yasab bo'lmaydigan o'timli fe'llar ham bor. Bunday vaziyatda (2 다) dagidek majhul nisbat qo'shimchasi va ‘-아/어지다’ni birgalikda foydalanilsa majhul nisbatni ifodalash mumkin.

1. 가: 젊은이들이 소설책을 읽는다.

(Yoshlar roman kitobni o'qidi.)

¹ “한국어 바음법” Toshkent(2007).152b

나: 소설책이 젊은들에게 읽어진다. (X)

다: 소설책이 젊은이들에게 읽혀진다.

(Roman kitob o'quvchilar tomonidan o'qildi.)

Majhul nisbatning yasalishi

O'zlik nisbatni majhul nisbatga aylantirishda gapning tarkibi qanday o'zgarishiga e'tibor qaratsak.

1. Qo'shimcha qo'shish orqali majhul nisbat yasash usuli:

가:

능동문: (o'zlik nisbat gapi)	경찰이(militsiya)	도둑을 (o'g'rini)	잡았다 (tutdi)
	주어 (ega)	목적어 (to'ldiruvchi)	타동사 서술어 (o'timli fe'lli kesim)

나:

피동문: (majhul nisbat)	도둑이 (o'g'ri)	경찰에게/한테/에 의해 (militsiya ga/tomonidan)	잡혔다 (tutildi)
Gap bo'laklari:	새 주어 (ega)	부사어 (hol)	피동사 서술어 (majhul nisbatli kesim)

‘ – 아/어지다’ orqali majhul nisbat yasash usuli

가: 철수가 여수에 대한 오해를 풀었다.

(Cholsu Yongsu haqida noto'g'ri to'xtamga keldi.)

나: 영수에 대한 오해가 철수에 의해 풀렸다.

(Yongsu haqida Cholsu tomonidan noto'g'ri fikrga kelindi.)

다: 영수에 대한 오해가 철수에 의해 풀어졌다.

(Yongsu haqida Cholsu tomonidan noto'g'ri fikrga kelindi.)

(1) va (2) da ko'rganimizdek o'zlik nisbatni majhul nisbatga aylantirishda o'zlik nisbat to'ldiruvchisi majhul nisbat egasi bo'lib, o'zlik nisbat egasiga '- 에/ - 에 게' yoki '- 에' qo'shib holga aylantiriladi, hamda o'timli fe'ldan iborat bo'lgan kesimga majhul nisbat qo'shimchasi yoki '- 아/-어지다' qo'shib, majhul nisbat yuzaga keltiriladi. Gapimizga yaxshilab e'tibor qaratsak, kesimi o'timli fe'l bo'lgan o'zlik nisbat, kesimi o'timsiz fe'l bo'lgan majhul nisbatga aylanayapti. Demak, majhul nisbat jufti bo'lgan o'zlik nisbat, kesimi o'timli fe'l bo'lgan gap bo'lib, kesimi sifat yoki o'timsiz fe'l bo'lgan gapni majhul nisbatga aylantirib bo'lmaydi. Ammo, o'zlik nisbatning egasini holga aylantirish holati biroz ko'proqdir. O'zlik nisbat egasi shaxs yoki hayvon bo'lganda oldindagi misoldagidek '- 에 게' yoki '- 한테' ni oladi, hamda o'zlik nisbat egasi shaxs yoki hayvon bo'lmagan paytda quyidagidek '- 에' ni qo'shib yoki vosita yo usulni ko'rsatuvchi '(으)로' qo'shiladi.

가: 흰 눈이 온 들판을 덮었다.

(Oppoq qor dalani qopladi.)

나: 들판이 온 흰 눈에 덮였다.

XULOSA

Har bir til o'zining ichki xususiyatlari, grammatik tuzilishi, qoidalari bilan ham boshqa tillardan ajralib turadi. Lekin shunga qaramasdan bazi bir tillarda grammatik jihatdan o'xshashlik va yaqinlik uchray turadi. Ayniqsa bu bir til oilasiga mansub bo'lgan tillarda kuzatiladi. O'zbek va koreys tillari ham shu jumladandir. Bu ikki til ham oltoy tillari oilasi mansub bo'lgani bois

grammatikasida, gap qurilishida bir-biriga juda o'xshash nisbat kategoriyasi nafaqat kores va o'zbek tillarida balki boshqa ko'plab tillar uchun umumiylikka ega bo'lgan grammatik tushuncha hisoblanadi.

Fe'l nisbatlari ish-harakatning bajaruvchisi (subyekt) bilan bajariluvchisi (obyekt) o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Bu munosabat mahsus grammatik shakl bilan yuzaga chiqadi. Masalan: *shoir she'r yozdi* gapida ega bevosita ish harakatning bajaruvchisi bo'lib, bajaruvchi va harakat munosabati nol shakli aniq nisbat bilan ifodalangan; *o'qituvchi bolaga kitobni o'qitdi* gapida harakatning bevosita va bevosita bajaruvchisi (o'qituvchi bilvosita, bola esa bevosita bajaruvchi) farqlangan. Dovul chalindi gapida harakat bajaruvchisi noaniq, majhul demak nisbati o'zgarishi bilan fe'lning bajaruvchisida ham o'zgarish yuz beradi. Nisbat kategoriyasi fe'lning bo'sh subyekt valentligini to'ldirib, muayyanlashtirishga uni nutqqa moslaydi. Hozirgi o'zbek tilida fe'l nisbatlarining beshta ko'rinishi ajratiladi:

O'zlik nisbatdagi fe'llar ish-harakatning bajaruvchisi (subyekt) ham, bajariluvchisi (obyekt) ham bir shaxs yoki narsaning o'zi ekanligini anglatadi. Bu nisbat fe'lga -l, -il, -n, -in qo'shimchalaridan mosini qo'shish orqali hosil bo'ladi: yuvinmoq, kiyinmoq, bezanmoq, bo'yanmoq, taranmoq, surinmoq, yiqilmoq, qoqilmoq kabi. Masalan: Gulsanam tongda turib yuvindi, tarandi, kiyindi va ishga jo'nadi. Futbolchining oyog'i qayrilib yiqildi.

Majhul nisbatdagi fe'l ish-harakatning bajaruvchisini ifodalamaydi. O'zlik nisbatdagi fe'llar kabi -l, -il, -n, -in qo'shimchalari yordamida hosil bo'ladi: bug'doy ekildi, sayohatga borildi, xat yozildi, maydon shudgorlandi, ishlar bajarildi, hosil to'plandi, zarar qo'plandi kabi. Masalan: Bu yil ob-havo yaxshi kelib, paxta ekilgan barcha yerlar erta shudgorlandi. Bir hafta ichida olmalar terib topshirildi.

Birgalik nisbatdagi fe'l ish-harakatning ikki va undan ortiq kishi tomonidan amalga oshirilishini anglatadi. Bu nisbat fe'lga -sh, -ish, -lash qo'shimchalaridan

mosini qo'shish bilan hosil bo'ladi: ikkovlashib ishlashdi, o'qituvchidan so'rashdi, ko'rgani kelishdi, ashula aytishdi, opa-uka suhbatlashdi, tabiat haqida so'zlashdi, hovlini supirishdikabi. Masalan: O'qituvchi dars qoldirayotgan talabalar bilan suhbatlashdi. Ular boshqa dars qoldirmaslikka so'z berishdi.

Orttirma nisbatdagi fe'llar ish-harakatning amalga oshishida boshqa biror shaxs yoki narsa vosita bo'lishini ifodalaydi. Bu nisbat fe'llarga -t, -dir, -tir, -ar, -ir, -giz (-kiz, -qiz, -g'iz), -gaz, (-kaz, -qaz) qo'shimchalaridan mosini qo'shib hosil qilinadi: she'rni o'qit, bog'da ishlat, bolalarni kuldir, matnni yozdir, kalitni toptir, otni choptir, xonani supirtir, tomga chiqar, qushlarni uchir, ovqatni pishirtir, mashinani yurgiz, dog'ni ketkiz, stulga o'tqiz, uyqudan turg'iz, suhbat o'tkaz, ko'chat o'tqaz kabi. Masalan: Gulnora ukasiga ertak o'qityapti. Mushuk daraxtga chiqib, qushlarni uchirdi.

Koreys tilida fe'l nisbatlari to'rtta bo'lib, bular 1) aniq nisbat 주동사, 2) majhul nisbat 피동사, 3) o'zlik nisbat 능동사 4) orttirma nisbat 사동사 lardir. 사동사 - orttirma nisbat, uning so'zma-so'z tarjimasi 시키다 –“buyurmoq, buyruq bermoq” ma'nosiga to'g'ri keladi. Masalan: 내가 철수에게 토끼한테 풀을 먹이게 하였다.

피동사 (majhul nisbat)da e'tibor ish-harakatning sub'yektiga emas, balki harakatning o'ziga va uning ob'yektiga ko'proq qaratiladi. Masalan: 창밖으로 산천 경치가 보입니다.

Bu ikkala nisbat qo'shimchalari bir xildir. Ya'ni ikkala nisbatga ham – 이, -히, -리, -기 qo'shimchalari qo'shiladi. Masalan: 보이다 (ko'rsatmoq), 입히다 (kiydirmoq), 울리다 (yig'latmoq), 남기다 (qoldirmoq);

쓰이다 (yozilmoq), 닫히다 (yopilmoq), 걸리다 (ilinmoq), 씻기다 (yuvilmoq).

Manbalarda ikkala holatda fe'llarga qaysi nisbat qo'shimchasi qo'shilishi aniq e'tirof etilmagan. Shu sababdan o'quvchi ularni farqlashda ayrim qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiydir. Bizningcha bu o'rinda, ayniqsa, koreys tilini chet tili sifatida o'rganuvchi o'quvchi tez va samarali o'zlashtirisi, shuningdek, tilning grammatik materialini osonroq anglashi maqsadida mavjud qo'shimchalarni darslik va o'quv qo'llanmalarda ajratgan holda aniq ifodalash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Majhul va orttirma nisbatni bir-biridan aniq farqlashda o'quvchilardan nisbatlarning ayrim jihatlarga e'tiborliroq bo'lish talab etiladi, chunki, majhul nisbatda fe'l odatda o'timsiz bo'lib, vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi, uning ob'yekti – 을/를 kelishiklari orqali yasaliş xususiyatiga ega emas.

Masalan: 문이 저절로 열렸다. 문제가 잘 풀린다.

Orttirma nisbatda fe'llar doimo vositasiz to'ldiruvchi – 을/를 kelishigini olgan so'z turkumlari bilan ifodalanadi. Masalan: 친구가 나를 웃겼다. 아이에게 옷을 입힌다. Yuqorida tahlil qilganimizdek, koreys tilida ham fe'l nisbatlari mavjud bo'lib, ular to'rt xildir. Koreys tilida asosan orttirma va majhul nisbat ko'proq ishlatiladi. Qolgan ikki nisbat esa bir-biriga juda o'xshab ketadi. Koreys tilida orttirma va majhul nisbatlar, o'zbek tilidagi orttirma va majhul nisbatlarga deyarli o'xshab ketadi, ammo farqli tomonlari ham juda ko'pdir. Orttirma va majhul nisbatlar o'zbek tilidagi orttirma va majhul nisbatdan biroz murakkabroq bo'lib, ularda bu nisbatlar asosan ikki xil yo'l bilan qo'shimchalarni birikma yoki yakka holda qo'shish orqali hosil qilinadi. Yakka holda qo'shish bu '이, 히, 리, 기' shu kabi qo'shimchalarni qo'shishdir. Bu kabi qo'shimchalar fe'l oxiri qanday tovush bilan tugashiga qarab qo'shiladi. Bunday holatda majhul nisbatni ifodalagan fe'llarda ko'rishimiz mumkin ekan. Misol uchun, '히' qo'shila oladigan o'timli fe'llarning padchimi 'ㄱ, ㄷ, ㅂ, ㅈ, ㅊ,' bo'lgan fe'llardir.

‘리’ qo’shila oladigan o’timli fe’llar padchimi ‘르’ bo’lgan fe’l yoki ‘걷다, 듣다’(yurmoq, eshitmoq) kabi ‘ㄷ’ noto’g’ri fe’llar, ‘누르다, 자르다’ (bosmoq, kesmoq) kabi o’zagi ‘르’ bo’lgan fe’llardir.

Ammo bu qo’shimchalar orttirma nisbat qo’shimchalari bilan o’xshash bo’lganligi uchun tashqi ko’rinishdan bir xil bo’lgan vaziyatlar ham bor. Bu paytda orttirma nisbat ishlatilganligini yoki majhul nisbat ishlatilganligini to’ldiruvchi borligiga qarab talqin qilish mumkin. Bu maqolada biz koreys tilida fe’l nisbatlarining qo’llanilishi, xususiyatlari, gapdagi vazifasi haqidagi masalalarga birozgina bo’lsada yechim topishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

I. Ilmiy adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yil 16-17 fevral kunlari Toshkent shahrida “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror ettirish va modernizasiya qilishning muhim sharti” mavzusida bo’lib o’tgan xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqidan. Zarafshon gazetasi. 2012-yil, 21-fevral, 21-soni.

2. Prezident Islom Karimovning “Barkamol avlod-2014” sport o’yinlari qatnashchilarga tabrigi. Xalq so’zi gazetasi. 2014 yil, 30 may. 105-soni.

3. O’zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Oliy ta’lim me’yoriy hujjatlar to’plami. –T.: Sharq, 1997.

4. Abdurahmonov G’.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh., Hojiyev A.P. O’zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. –T.: Fan, 1975. - 609 b.

5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: Fan va texnologiya, 2009. -414 b.
6. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. -T.: O'qituvchi, 1978. -256 b.
7. Yaxshiboyev G'.X. Hozirgi o'zbek tilida soda gap sintaktik derivatsiyasi. -T.: Fan, 2006. - 109 b.
8. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. -T., O'qituvchi, 1992. - 207 b.
9. Eltazarov J., Kim In Te. Janubiy Koreya: o'tmish va bugun. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2002. - 82 b.
10. Sh.Shoabdurahmonov va bjshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T., O'qituvchi, 1980. - 231 b.
11. Xojiyev A. So'z yasalishi. -T.: O'qituvchi, 1989. - 287 b.
12. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: O'qituvchi, 1987. - 144 b.
13. Вставский А.Н. Коннотативный компонент: проблемы интерпретации. Электронный научный журнал Омского гос.пед.института. Выпуск-2006, www.omsk.edu
14. Кожевникова К. О смысловом строение спонтанной устной речи. //Новое в Зарубежной лингвистике. 1985, №15. 524 с.
15. Козлов Ю.М. Переводим незначительные слова. (Электр. Учеб.пос. Интернет). 2009.
16. Лукьянова Н.А. О семантике и типах экспрессивных лексических единиц. //Актуальные проблемы лексикологии и словообразования. Новосибирск, 1979. Вып. 8. 121 с.
17. Орлов Г.А. Современная английская речь. -М.: Высшая школа, 1991, 240 с.
18. Шаховский В.И. Эмотивный компонент значения и методы его описания. Волгоград, 1983. -179 с.
19. Ф. Де Соссюр. Заметки по общей лингвистике. -М., 1990. - 131 с.
20. Бенвенист Эмиль. Общая лингвистика. -М., 1974. - 98 с.

21. 채완(2003), 한국어의 의성어와 의태어, 서울대학교 출판부.
22. 박동근(1992), 한국어 상징어의 형태.의미 구조 연구, 건국대학교.
23. 정주리외(2006), (역사가 새겨진)우리말 이야기, 고즈원.
24. 이응(1995), 국어국문학 자료사전 상/하 한국사전연구소.
25. 신기철(1983), 새 우리말 큰 사전(상)/(하), 삼성출판사

II. FOYDALANILGAN BADIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 강석 진(2005), 아빠와 함께 -수학 을. — 해나무 .
2. 김진명(1998), 하늘이여 땅이여 1 — 해냄 .
3. 전유성 (2007), 전유성 의 구라 삼국지 — 소담출판사 .
4. 이윤학(2001), 푸른 자전거 — 웅진닷컴 .
5. 이철 한(2002), 연탄 길 - 삼진기획.
6. 목수 김 씨(2001), 목수일기—웅진닷컴.
7. 임현갑 (지음)(2001), 길 끝나는 곳에서 길을 묻는다, -웅진닷컴.
8. 손광성(2001), 나도 꽃 처럼 피어나고 십다 -을유문화사.
9. 유혜자(2003), 자유의 금빛날개—선우미디어.
10. 김인성(2005), 소설가의 길을 따라 -평민사.
11. 최원현(2003), 오렌지색 모자를 쓴 도시—범우사.
12. 유승도(2002), 천사람으로 사는 즐거움 -중앙 M:B.

III. Internet saytlar

1. <http://koreanbooks.ucoz.ru>
2. <http://www.geocities.com>.